

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TO‘RAXANOV SAFARALI IBROHIMOVICH

O‘Z-O‘ZIDAN ZICHLASHUVCHI KERAMZITBETONNING TARKIBI
VA XOSSALARI

05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent– 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (PhD) философии по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

To‘rahanov Safarali Ibrohimovich O‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonning tarkibi va xossalari	3
Тўраханов Сафарали Иброхимович Состав и свойства самоуплотняющегося керамзитобетона.....	21
To‘rahanov Safarali Ibrohimovich Composition and properties of self-compacting expanded clay concrete	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	42

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.26/30.12.2019.T.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TO‘RAXANOV SAFARALI IBROHIMOVICH

**O‘Z-O‘ZIDAN ZICHLASHUVCHI KERAMZITBETONNING TARKIBI
VA XOSSALARI**

05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4775 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.taqi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kamilov Xabibilla Xamidovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xodjayev Saidaglam Agloyevich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Sulton Ilyosovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 26/30.12.2019 T 11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 3-iyun soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100194, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar, 9-uy, 4-bino, 5-qavat, faollar zali, tel : (99855) 508 02 95; faks: (99855) 508 50 06, e-mail: devon@taqu.edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№149 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100194, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangi shahar, 9-uy. Tel (99855) 508 02 95; faks: (99855) 508 50 06.e–mail: taquarm@edu.uz.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 19-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 17-martdagi 55 raqamli reestr bayonnomasi).

X.A. Akramov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

I.I. Siddiqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi t.f.d., dotsent

B.A. Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda beton va temir-beton konstruksiyalari nafaqat tobora o'sib borayotgan aholini uy-joy bilan ta'minlashda, balki fuqarolik, transport, gidrotexnik va sanoat inshootlari qurilishida ham muhim o'rin tutadi. Jahon qurilish bozori yetakchilari bo'lgan AQSh, Hindiston, Xitoy, Braziliya, Malayziya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda 2023 yildan 2028 yilgacha o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,36% ga, beton va sement bozorining 438,3 milliard dollarga oshishi kutilmoqda.¹ Bu borada ishlab chiqarish jarayonida tabiiy homashyolarni tejash, ikkilamchi resurslardan foydalanish va energiyatejamkorlikka erishish imkoniyatlarini beruvchi mahalliy materiallar va xom ashyodan foydalanib yengil konstruksion betonlarning xossa va strukturalarini optimallashtirish, uzoq vaqt davomida xizmat qilishini oshirish va ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda gidravlik faolligi sof klinkerli portlandsementnikidan kam bo'lmagan, energiya va resurstejamkor mineral bog'lovchi kompozitlarining tarkiblarini ishlab chiqish, ularning xossalarini tadqiq etish, natijada atmosferaga karbonat angidrid gazlari ajralib chiqishini kamaytirishga erishish, shu bilan birga ulardan foydalanib konstruktiv va texnik xossalari yaxshilangan betonlarning tarkiblarini yaratish hamda ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda betonlarning mustahkamligini pasaytirmagan xolda sement sarfini kamaytirish, ularning xossalarini mahalliy va ikkilamchi xomashyolar hamda g'ovakli to'ldiruvchilardan foydalanib yaxshilash, shuningdek konstruksion yengil betonlarning tarkiblarini turli kimyoviy va mineral qo'shimchalar bilan modifikatsiyalash, ularni optimallashtirish orqali struktura va xossalarini yaxshilash, energiya va resurs tejamkorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish, mahalliy va ikkilamchi xom ashyolardan foydalangan xolda yangi zamonaviy qurilish materiallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, muayyan yutuqlarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida «... sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish ...»² kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan foydalanib, o'z-o'zidan zichlashuvchi konstruksion keramzitbeton tarkiblarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-son «2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tishiga

¹ <https://www.technavio.com/report/concrete-and-cement-market-industry-analysis>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони

qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-son «2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. G'ovak to'ldiruvchilar asosidagi betonlarning yangi tarkibini ishlab chiqish, o'z-o'zidan zichlashuvchi betonlarning tarkiblari va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish, shu jumladan foydalaniladigan to'ldiruvchilar, kimyoviy va mineral qo'shimchalardan unumli foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bo'yicha H. Al-Attar, J.A. Al-Khaiat, Bogas, H. Okamura, M. Ouchi, K.Osava, K. Maekawa, M.Karamloo, N. Ranjbar, Q.L.Yu, P. Spiesz, Khaled Heiza, Abdurrahmaan Lotfy, Ю.М. Баженов, Г.И. Горчаков, Б.Г. Скрамтаев, А.Г. Бужевич, Н.А. Попов, А.Г. Комар, И.А., Иванов, Н.И. Макридин, Л.П. Орентлихер, Г.В. Несветаев, А.В. Беляев, В.А. Дорф, В.Г. Довжик А.С. Иноземцев, Е.В. Королев, С.А. Удодов, М.В. Комаринский, С.И. Смирнов, С.С.Каприелов va boshqalar shug'ullanib, ushbu masalalarni hal qilishda fanning rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Bu yo'nalishda yurtimiz olimlaridan, A.B. Ashrabov, E.U. Qosimov, N.A. Abbasxonov, B.A. Asqarov, A.I. Adilxo'jaev, X.A. Akramov, L.M. Botvina, N.A. Samigov, S.A. Xodjaev, M.K. Taxirov, A.A. To'laganov, U.A. Gaziev, I.M. Maxamatalliev, B.M. Цой, X.X. Kamilov, T.T. Shakirov va boshqalar mahalliy xomashyo va ikkilamchi resurslar asosidagi turli mineral qo'shimchalar xamda kimyoviy qo'shimchalarni qo'llash orqali yengil betonlarning samarali tarkiblarini ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha muhim natijalarga erishganlar.

Avval o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili yengil betonlar ishlab chiqarish uchun energiya samaradorlikni oshirish va resurs tejamkor texnologiyalarini yaratish sohasida muhim ijobiy natijalar olinganligini ko'rsatdi. Biroq Respublikamizda mahalliy va ikkilamchi xom ashyodan foydalanib o'z-o'zidan zichlashuvchi konstruksion yengil betonlarning tarkiblari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha bajarilmaganligi bu yo'nalishdagi ilmiy ishlarni kengroq doirada olib borishni talab qilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining "Qurilish materiallari va konstruksiyalari texnologiyasi" kafedrasining "Maxalliy xomashyo va sanoat chiqindilari asosida qurilish materiallari, to'ldiruvchilarni yaratish va ular asosida

qurilish konstruksiyalar va devor panellarini loyihalash” (2020-2025) mavzusidagi bosh ilmiy yo‘nalish mavzusi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan foydalanib o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonning tarkiblarini ishlab chiqish va xossalari tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton tayyorlash uchun hom ashyo materiallarning xossalari tadqiq etish va maqbullarini tanlab olish;

tanlab olingan kimyoviy va mineral qo‘shimchalarni portlandsementning qotish jarayoniga ta‘sirini tadqiq etish;

o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasini tayyorlashda keramzit to‘ldiruvchilariga dastlabki ishlov berish usulining beton qorishmasi va qotgan betonning xossalariga ta‘sirini tadqiq etish;

o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonning optimallashtirilgan tarkibini ishlab chiqish va xossalari tadqiq etish;

o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton ishlab chiqarishning texnologik sxemasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan tayyorlanadigan o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonlarning tarkibi, fizik-mexanik, fizik-kimyoviy va texnologik xossalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida rentgen-fazali taxlil, lazerli granulometriya, issiqlik o‘tkazuvchanlik, polyarizatsion mikroskopiya va boshqa standartlashtirilgan usullaridan hamda keramzitbeton tarkibni loyihalashda optimallashtirishning matematik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

superplastifikatorli «portlandsement-mineral qo‘shimcha- superplastifikator-suv» tizimi asosidagi sun‘iy toshdagi bog‘lovchining gidratatsiyalanish darajasi (0,656) superplastifikatorsiz namunikiga nisbatan past bo‘lishi (0,673) aniqlangan;

PR-196 superplastifikatorining ta‘sir qilish mexanizmi va Pauers formulalari asosida hamda bog‘lovchining gidratatsiyalanish darajasini hisobga olgan xolda «portlandsement-pusolan qo‘shimcha– superplastifikator-suv» tizimi asosidagi sun‘iy tosh g‘ovaklaridagi gel miqdori, gelning g‘ovakligi va geldagi suv miqdori aniqlangan;

Ca(OH)₂ning yutilishini aniqlash orqali keramzit to‘ldiruvchining pusolan faollikka ega ekanligi (70 mg/g) isbotlangan;

avvaldan suvga to‘yintirib olingan keramzit to‘ldiruvchisidan foydalanish orqali an‘anaviy usulda tayyorlanadiganga nisbatan beton mustahkamligini 33% ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan foydalanib o‘z-o‘zidan zichlashuvchi konstruksion yengil keramzitbetonning optimal tarkiblari ishlab chiqilgan;

g'ovak to'ldiruvchi va sanoat chiqindilaridan foydalanib yuqori mustahkamlikdagi o'z-o'zidan zichlashuvchi konstruksion yengil keramzitbeton tarkiblarining matematik modellari ishlab chiqilgan;

optimallashtirilgan tarkib tufayli o'z-o'zidan zichlashuvchi konstruksion yengil keramzitbeton ishlab chiqarishda sarf bo'ladigan portlandsementning har bir kilogrammiga 0,228 MPa gacha mustahkamlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi va qotgan betonning xossalari o'rganishda tadqiqotning zamonaviy usul va vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, hisoblash ishlari kompyuter dasturi yordamida bajarilganligi, tajriba va nazariy tadqiqot natijalarining o'zaro mutanosibligi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi va qotgan betonda faza hosil bo'lish jarayoni va strukturasi shakllanishi, shu bilan birga tarkiblar o'zgarishi ularning fizik-mexanik xossalari va sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati seysmik jixatdan barqaror, yengil, energiya samaradorligi yuqori bo'lgan ko'p qavatli binolarni qurish uchun o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmalarini foydalaniladigan joyiga qarab to'g'ri tanlash, tarkiblarni tayyorlash va ulardan foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonning tarkibi va xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

portlandsement, superplastifikator, faol mineral qo'shimchalar, keramzit chaqirtoshi va qumi, daryo qumi va suvdan foydalanib ishlab chiqilgan keramzitbeton tarkiblari "Aysel Inshaat" MChJ QKda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025 yil 13-yanvardagi 20-06/407 son ma'lumotnomasi). Natijada siqilishdagi mustahkamligi 55 MPa bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi yengil keramzitbeton olishga erishilgan;

portlandsement, superplastifikator, faol mineral qo'shimchalar, keramzit chaqirtoshi va qumi, daryo qumi va suvdan iborat o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasining optimal tarkiblari "UNIO GROUP" MChJ XKda joriy qilingan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalar uyushmasining 2025 yil 5-fevraldagi 02-15/354 son ma'lumotnomasi). Natijada 150 kg sement sarfi va kimyoviy, mineral qo'shimchalarni optimal nisbatlari orqali yoyiluvchanligi 74,5 sm bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi va 28 sutkalik mustahkamligi 34,14 MPa bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 7 ta halqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta scopus bazasida ro'yxatga olingan konferensiyada maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiya-

sining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola: jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tarkibi va xajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar tahlili va tadqiqotning nazariy tasavvurlari**" deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo'yicha chet el hamda yurtimiz olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining tahliliy sharhi keltirilgan.

Ilmiy manbalarning tahlili yengil betonlar, jumladan g'ovakli sun'iy to'ldiruvchilardan tayyorlanadigan konstruktiv betonlar tabiiy zich to'ldiruvchili og'ir betonga qaraganda bir qator fizik, mexanik va iqtisodiy afzalliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Mutahassislarining fikricha, sementni sarfini kamaytirish va keramzitbetonning mustahkamligini oshirish orqali xamda konstruksiyaning massasini pasaytirish bilan bir qatorda issiqlik-fizik xossalarning og'ir betondan ustunliklari hisobiga nafaqat qurilish vaqtida, balki konstruksiyadan foydalanish vaqtida ham iqtisodiy samaraga erishish mumkin. Zamonaviy qurilish murakkab shakllardagi va zich armaturalangan temir-beton konstruksiyalarni ishlab chiqarishni talab qilayotganligi, bu esa beton qorishmaning yetarli darajada zichlashmasligi va ishlab chiqarilgan konstruksiyaning qoliplarini qoniqarsiz to'ldirishi bilan bog'liq muammolarni o'z-o'zidan zichlashuvchi betonlardan foydalanish orqali xal qilish mumkinligini ko'rsatdi.

Yuqori mustahkam va sifatli o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton ishlab chiqarish imkoniyati yuqori samarali polikaboksilatli superplastifikator bilan turli xil kombinatsiyalarda yuqori faol mineral qo'shimchalar (mikrokremnezem, kul changi va boshq.) yordamida sement toshining strukturasi shakllanishini boshqarish orqali amalga oshirish ekanligini aniqlandi.

Bajarilgan tadqiqotlar sharhi va adabiyotlar tahlili hozirgi kunga qadar Respublikamizda mahalliy va ikkilamchi xom ashyodan foydalanib o'z-o'zidan zichlashuvchi konstruksion yengil betonlarning tarkiblari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar bajarilmaganligi va kengroq tadqiq qilish ma'lum darajada qiziqish uyg'otadi.

O'z-o'zidan zichlashuvchi betonlar tarkibi va strukturasi tahlil qilish va bajariladigan tadqiqotlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun

quyidagi **ishchi gipoteza** shakllantirildi. Karboksilatli superplastifikator, faol mineral qo‘shimchalar va keramzit to‘ldiruvchilaridan foydalanishga asoslanadi. Yangi tarkib, bir tomondan past sifatli to‘ldiruvchilarning materialda faol ishlashiga yordam bersa, ikkinchi tomondan to‘ldiruvchi va sement toshini bir butun jismdek ishlashini ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Xomashyo materiallarning xossalari va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton olish uchun qo‘llaniladigan xomashyoning xossalari va eksperimental tajribalarni o‘tkazish uchun qabul qilingan tadqiqot usullari keltirilgan.

To‘ldiruvchi sifatida foydalanilgan “Navoiy Keramzit” MChJ (K1), “Qarshi Keramzit” OTAJ (K2) va “G‘azalkent keramzit zavodi” MChJ (K3) korxonalarining keramzit chaqiqtoishi, keramzit qumi va daryo qumining fizik mexanik ko‘rsatkichlari xamda faol mineral qo‘shimcha sifatida ishlatilgan mikrokremnezem, kul changi va mikrokalsitning kimyoviy va granulometrik tarkiblari, rentgen fazaviy tahlili keltirilgan. Shuningdek kimyoviy qo‘shimcha sifatida foydalanilgan “Constant formula” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan PR-196, Chryso Delta - 6325, Kimyo-Texnologiyalar ITI tomonidan ishlab chiqarilgan RS-1, “Regal Globe Service” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan PC-08-SC-7, PC-08-SC-4, “Poliplast Novomoskovsk” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan Poliplast-956 superplastifikatorlarining aniqlangan xossalari keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib tadqiqotlarning usullari asoslab berilgan va tanlab olingan. Eksperimental tadqiqotlarda standartlashtirilgan usullar bilan bir qatorda fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, hamda yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlarining mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan nostandart usullar qo‘llanilgan.


Dissertatsiyaning **“Qo‘shimchalarning sement xamiri va sement toshining xossalari ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobi foydalanilgan materiallarning, xususan keramzit to‘ldiruvchisi yuzasining putsolan faolligini aniqlashga, sement xamiri va sement toshi xossalari superplastifikator va putsolan qo‘shimchalarning ta’sirini o‘rganishga, portlandsementning qotish kinetikasiga superplastifikator va putsolan qo‘shimchalarning ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Birinchi bobda keltirilgan adabiyotlar tahlili keramzit havoda sovutilganda, mikroskop ostida shisha fazali prizmatik kvars kristallari, yirik parchalanuvchi anortit kristallari va tabletka shaklidagi gematit kristallari mavjud bo‘lishini ko‘rsatdi. Kvars donalarining yoriqlari va qirralari bo‘ylab tetragonal singoniyali kristobalitning kristallanishi qayd etilgan.


Yuqoridagilarga asoslanib, biz tadqiqotimizda keramzit chaqiqtoishi yuzasi va ichki qismining putsolan faolligi imkoniyatlarini o‘rganishga qaror qildik. Buning uchun uch xil usuldan foydalanildi. Birinchi usulda mineral qo‘shimchalarning faolligini qo‘shimchalarning ohakning to‘yingan eritma-sidagi ohakni singdirish qobiliyatini aniqlash orqali amalga oshirildi. Ikkinchi usulda beton va temirbeton konstruksiyalarini qotishini tezlashtirish uchun issiq-nam ishlovi berilishini hisob-

ga olgan xolda sinov uchun tayyorlangan namunalar ohakning to‘yingan eritmasiga solinganidan keyin dastlabki 8 soat davomida 80 °C haroratda ushlab turildi va keyin 30 kun davomida har 2 sutkada titrlash orqali sinov ishlari bajarildi. Putsolan faollikni aniqlashning uchinchi usulida kremniy dioksidli xom ashyosning faollik koeffitsienti integral xossalarini baholashning ekspress usulidan foydalanildi.

Tanlangan usullar yordamida aniqlangan natijalar 1 va 2- rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. Keramzit sirti namunalariidagi faol SiO₂ning vaqt bo‘yicha Ca(OH)₂ bilan birikishi: t-indeksi 2-usul bo‘yicha aniqlangan faollik




2-rasm. Keramzitning ekspress usulda aniqlangan faollik darajasi

Bajarilgan ilmiy izlanishlar natijasida 30 kun davrida K1, K2 va K3 namunalardagi faol SiO₂ mos ravishda 42 mg/g, 61 mg/g va 70 mg/g Ca(OH)₂ ni singdirishi aniqlandi. Dastlabki termik ishlov berilishi reaksiya ketishini tezlashtirgani va faol SiO₂ Ca(OH)₂ singdirishi ravishda 189 mg/g, 118 mg/g va 141 mg/g ni tashkil etishi aniqlangan.

Uchinchi usul, ya’ni ekspress usul yordamida olingan natijalar keramzit to‘ldiruvchilarining putsolan faollikga ega ekanligini ko‘rsatdi. Keramzit to‘ldiruvchisining putsolan faollikga ega ekanligi xaqidagi olingan natijalar keramzitbeton tarkibidagi faol SiO₂ portlandsement gidratatsiyasi davrida ajralib chiqadigan portlantit bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, bog‘lovchi va to‘ldiruvchi orasidagi kontakt zonasini yaxshilashga olib keladi.

Kimyoviy qo‘shimchalarning sement xamiri yoyilishiga xamda sementning suvga talabchanligini kamayishiga ta’sirini o‘rganish davomida Poliplast №956, RC-1, PC-08-SC-7, PC-08-SC-4, Chryso Delta-6325, PR-196 kabi bir necha kimyoviy qo‘shimchalar olindi. Tanlab olingan kimyoviy qo‘shimchalarning ta’siri mini-konus usuli yordamida tekshirildi. Eksperimentlar natijasida sement xamiri PR-196 superplastifikatorining 0,8% miqdori qo‘shilganda maksimal yoyiluvchanlikka erishishi va shu dozirovkada sement xamirining suvga bo‘lgan talabchanlikni 45% ga qisqartirishi aniqlandi. Bu xaqida 3-rasmdagi ma’lumotlar dalolat beradi.

Poliplast №956 superplastifikatori suvga bo‘lgan talabchanlikni 35% ga, RC-1 40% ga, PC-08-SC-7 35% ga, PC-08-SC-4 25% ga, Chryso Delta-6325 35% ga, PR-196 45% ga kamaytirishi aniqlandi.



3-rasm. Kimyoviy qo‘shimchalar miqdorining portlandsement xamirining yoyiluvchanligiga ta‘siri

Sement toshi mustahkamligiga kimyoviy qo‘shimchalar ta‘sirini aniq ifodalash maqsadida dastlab superplastifikator qo‘shish yordamida yoyiluvchanligi oshirilgan sement xamirlaridan olingan sement toshlari mustahkamligi xuddi shu yoyiluvchanlikka suv qo‘shish yo‘li bilan erishilgan sement xamirlaridan olingan sement toshlarining mustahkamliklari

taqqoslandi. So‘ngra superplastifikator qo‘shish bilan suvga bo‘lgan talabchanligi 45 % ga kamaytirilgan sement xamiridan olingan namunaning mustahkamligi va superplastifikator qo‘shilmagan sement toshi mustahkamligi solishtirildi. Olingan natijalar asosida kimyoviy qo‘shimchalardan foydalanib tayyorlangan sement toshining 7 va 28 sutkalik mustahkamliklari kontrol namunikiga nisbatan mos ravishda 206% va 140% ga yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqotlarda foydalanilgan superplastifikatorlar ichida o‘zining samarasi bo‘yicha PR-196 superplastifikatori eng yuqori samaraga ega ekanligini xisobga olib, keyingi izlanishlarimizda foydalanish uchun tanlab olindi.

Sement xamirining yoyilishiga mineral qo‘shimchalar turi va miqdorining ta‘siri tadqiq etildi. Bunda kul changi, mikrokremnezem va mikrokalsitni sement massasiga nisbatan qo‘shilganda qorishmaning mini-konus yordamida aniqlanadigan yoyilish diametrlariga qanday ta‘sir qilganligi 1-jadvalda ko‘rish mumkin.

1-jadval. Mineral qo‘shimcha miqdorining sement xamiri yoyilishiga ta‘siri

№	Qo‘shimcha nomi	Mineral qo‘shimcha miqdori (%) sement xamirining yoyilishiga ta‘siri, sm						
		0	5	10	15	20	25	30
1	Kul changi	24,9	23,7	22,5	21,6	20,7	19,5	18,4
2	Mikrokremnezem		23,1	22,7	21,2	19,4	18,1	16,8
3	Mikrokalsit		24,2	23,1	22,5	21,9	21,4	21,0

Sement xamiri yoyilishini kul changi, mikrokremnezem va mikrokalsitning 30% miqdorida sement bilan almashtirish mos ravishda 26,1%, 32,53% va 15,7% ga kamaytirgani aniqlandi. Buni qo‘shimchalarning sirt yuzasi va putsolan faolliklari xar xilligi bilan izoxlash mumkin.

Superplastifikator (PR-196) va mikrokremnezem, kul changi kabi putsolan qo‘shimchalarning portlandsementning gidratatsiyasiga ta‘sirini tadqiq etishdagi namunalarning tarkiblari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Namunalarning tarkibi

№	Sement xamiridagi komponentlar ulushi, %				PR-196	Suv/Sement
	PS	Mkr	KCh	Mkal		
1	100	-	-	-	-	0,37

2	100	-	-	-	0,8	0,204
3	47,62	7,14	23,81	21,43	-	0,37
4	47,62	7,14	23,81	21,43	0,8	0,204

Portlandsementning qotish kinetikasiga superplastifikator va putsolan qo‘shimchalarning ta’siri vaqt o‘tishi bilan sement toshi mustahkamligining o‘zgarishi, kimyoviy bog‘langan suv miqdori, o‘rtacha va haqiqiy zichlik, g‘ovaklikni aniqlash eksperimental ravishda, sement toshidagi gel bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar Pauers formulalari yordamida aniqlandi. Buning uchun 3x3x3 sm o‘lchamdagi kub namunalar tayyorlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalarida aniqlangan qiymatlar 3-jadvalda keltirilgan.

28 sutkalik namunalar mos ravishda o‘ziga 13,1; 11,98; 15,56 va 15,02% suvni kimyoviy bog‘lagani aniqlandi. Olingan natijalar mineral qo‘shimchalardan foydalanilgan tarkiblardagi kimyoviy bog‘langan suv miqdori superplastifikatorsiz va superplastifikatorli namunalarga nisbatan mos ravishda 2,46 va 3,04% ga yuqori bo‘lishi ko‘rsatib o‘tildi.

3-jadval. Bog‘lovchi toshi strukturasi 28 sutkalik davrdagi tashkil etuvchilari va siqilishdagi mustahkamligi

№	KBS	GD	O‘Z	XZ	GG‘	GG‘SX	G‘GX	R _c , MPa
1	13,1	0,624	1,83	2,57	12,21	13,431	43,6	33,63
2	11,98	0,57	2,127	2,72	11,15	12,265	39,82	61,2
3	15,56	0,676	1,805	2,34	10,95	12,045	39,1	39,5
4	15,02	0,653	2,02	2,54	10,57	11,627	37,76	47,0

Izoh: Tartib raqami 2- jadval bo‘yicha; KBS - kimyoviy bog‘langan suv miqdori; GD – gidratatsiyalanish darajasi; O‘Z – o‘rtacha zichlik; XZ – xaqiqiy zichlik; GG‘ – Gelning g‘ovakligi; GG‘SX – gel g‘ovaklaridagi suv xajmi; G‘GX – g‘ovaklardagi gel xajmi; R_c – siqilishdagi mustahkamlik.

Polikarboksilat efirlari asosidagi superplastifikator sement toshining turli qotish sharoitida gidratatsiyalanish jarayonlarini sekinlashtirishi aniqlandi, bu kimyoviy bog‘langan suv miqdorining nisbatan pastligi bilan izoxlanadi. 28 sutkalik qo‘shimchalarsiz sement xamirining gidratatsiyalanish darajasi 0,624 ga, superplastifikatordan foydalanilgan tarkib esa mos ravishda 0,57 ga teng bo‘lishi aniqlandi. Portlandsementning 50% faol mineral qo‘shimchalar bilan almashtirilishi kontrol’ namunaga nisbatan mustahkamlikni kamaytirmasdan, balki 17% gacha mustahkamlikni oshirish imkonini berdi. Polikarboksilatli superplastifikator yordamida esa bu ko‘rsatkich 39% gacha ortdi.

Polikarboksilat efirlari asosidagi superplastifikatorni faol mineral qo‘shimchalar bilan birgalikda qo‘llash superplastifikatorning suvni kamaytiruvchi ta’sirini oshirishga imkon berishi va gidratatsiya-lanish jarayonlarining to‘liqroq sodir bo‘lishiga yordam berishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**O‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi va betonning xossalari**” nomli to‘rtinchi bobi o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton tarkibini loyihalash, o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi tayyorlash usulining beton qorishmasi va qotgan betonning xossalari

ta'siri, o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi tarkibini optimallashtirish bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalariga bag'ishlangan.

Ma'lumki hozirgi vaqtgacha o'z-o'zidan zichlashuvchi betonlar tarkibini loyihalashning yagona usuli mavjud emas. Shuning uchun ilmiy adabiyotlar tahlili va ularda keltirilgan tavsiyalar asosida o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonning tarkibi 1 m³ xajmdagi to'ldiruvchilar aralashmasining optimal granulometrik tarkibini loyihalash, ya'ni to'ldiruvchilarni elaklar to'plamidagi qoldiqlari tahlili egri chiziqlarini $\rho = 0,45-0,55$ nisbatlar oralig'idagi zarrachalarining taqsimotining Fuller egri chizig'iga maksimal darajada yaqinlashtirish orqali amalga oshirildi. Bu esa to'ldiruvchi aralashmasi zarralarining maksimal zichlashishi va o'z-o'zidan zichlashuvchi beton qorishmasining yoyiluvchanligi uchun eng qulay sharoitlarni va qotgan betonning mustahkamligini yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasini tayyorlash usulining qorishma va qotgan betonning xossalari ta'sirini o'rganishda 3 ta usul ko'rib chiqildi:

1-usul an'anaviy usul xisoblanib barcha quruq komponentlar avval aralashtirilib, keyin suv va kimyoviy qo'shimcha qo'shib qorishma tayyorlandi;

2- usulda keramzitbeton qorishmasini tayyorlashdan avval keramzit suvga to'yintirib olindi, keyin qolgan komponentlar bilan aralashtirilib, beton qorishmasini tayyorlash uchun qolgan suv midori suv va kimyoviy qo'shimcha qo'shildi;

3-usulda esa keramzit yuzalariga akril polimeri bilan ishlov berilib, yuzasidagi ochiq g'ovaklari berkitildi. Bu usulda qorishma tayyorlash uchun foydalaniladigan suv miqdori keramzitning shimib oladigan suv miqdoriga kamaytirib foydalanildi. Beton qorishmasini aralashtirish kerma ketligi birinchi usuldagi kabi amalga oshirildi.

O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonni tayyorlash 1-usuli bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili 4-jadvaldagi natijalarga ko'ra yoyiluvchanlik tarkib-larga qarab 66,4 sm dan 76 sm gacha o'zgarishini ko'rsatdi.

4 – jadval. Uch xil usulda tayyorlangan beton qorishmasining xossalari

№	1-usulda tayyorlangan qorishmalar xossalari				2-usulda tayyorlangan qorishmalar xossalari				3-usulda tayyorlangan qorishmalar xossalari			
	Tr, s.	RK cm	OK cm	ρ_{bq} kg/m ³	Tr, s.	RK cm	OK cm	ρ_{bq} kg/m ³	Tr, s.	RK cm	OK cm	ρ_{bq} kg/m ³
1	62	74,2	27,5	2021	55	76,9	28,5	2035	50	71	26,5	1965
2	54	66,4	27,5	2032	52	69,7	28,3	2042	50	70,5	27,7	1981
3	91	70	28,5	1896	72	76	28,7	1904	64	78,3	29	1843
4	70	76	29	1770	72	79	29	1781	42	79,2	27,8	1712

Ikkinchi usulda tayyorlangan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmalari ham suv sarfi kamayganiga qaramay (ilgari to'ldiruvchi tomonidan shimilgan suv hisobga olinmagan holda) konusning yoyilishi bo'yicha me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishi aniqlandi. Beton qorishmasini tayyorlashning ushbu usulida to'ldiruvchi tomonidan suvning intensiv shimilishi kuzatilmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, uchinchi usul yordamida tayyorlangan o'z-o'zidan


zichlashuvchi keramzitbetonda sun'iy ravishda qoplangan plyonka xisobiga keramzit to'ldiruvchisining suv shimishi kuzatilmaydi va suv sarfi kamayganiga qaramay, konusning yoyilish vaqti oldingi usullar yordamida olingan keramzitbetonlarning yoyilish vaqtiga qaraganda ancha tezroq (42 dan 64 sekundgacha) sodir bo'lishi, yoyilish diametrlari xam me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishi aniqlandi.

An'anaviy usulda tayyorlangan sement sarfi 400, 500 va 600 kg/m³ bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qarishmalarining yetti sutkalik mustahkamlik ko'rsatkichlari kontrol namuna (sement sarfi 300 kg/m³ bo'lgan №1 tarkib) mustahkamligi bilan solishtirganda mos ravishda 4,12, 54 va 57% ortishi aniqlandi (5,a-rasm). Sement sarfi 300, 400, 500 va 600 kg/m³ bo'lgan tarkiblarning 28 sutkalik mustahkamlik ko'rsatkichlari mos ravishda 16, 49, 16 va 8% ga oshishi kuzatildi. Sement sarfi 400 kg/m³ bo'lgan tarkibning mustahkamlik ko'rsatkichi eng yuqori o'sishini (49%) ko'rsatdi. Buni to'ldiruvchi va sement toshi oraliq qatlamlarini qalinligini to'ldiruvchining suv shimishi, ya'ni betonning o'z-o'zidan vakuumlanishi va o'z-o'zidan zichlashishi sodir bo'lishi xisobiga zichlashishi va to'ldiruvchi atrofida siquvchi oboyma hosil qilishi bilan tushuntirish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sement miqdorini 1,5 barobarga oshirish tarkiblarning 28 sutkalik mustahkamlik ko'rsatkichlarini atigi 10% ga oshirishi aniqlandi.

Ikkinchi usulda tayyorlangan sement sarfi 300 va 400 kg/m³ bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton namunalari mos ravishda yetti sutkada 32,13 va 32,24 MPa mustahkamlik ko'rsatkichlariga ega bo'ldi, bu an'anaviy usuldan foydalanib tayyorlangan bir xil namunalardan 17-21% yuqori ko'rsatkich demakdir. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qarishmalarini tayyorlashning ikkinchi usuli uchun 5,b-rasmda keltirilgan mustahkamlik ko'rsatkichlarini namoyon qildi. Sement sarfi 300 kg/m³ bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton 28 sutkada 40,58 MPa mustahkamlikka erishdi, bu an'anaviy usul yordamida tayyorlangan xuddi shunday beton mustahkamligidan 33% ga yuqori ekanligi aniqlandi. Buni suvning keramzit g'ovaklaridan qarishma ichiga qaytishi davrida, birinchi usulda tayyorlangan beton qarishmasidan o'laroq, kontakt zonasi o'ta zichlashib ketmasligi va suv kontakt zonasi strukturasiidagi mavjud g'ovaklar orqali migratsiyasi sement toshi strukturasiini buzmasligi bilan tushuntirish mumkin.

Tadqiqotlar natijasida suv sarfi kamayganiga qaramay, konusning yoyilish vaqti oldingi usullar yordamida olingan keramzitbetonlarning yoyilish vaqtiga qaraganda ancha tezroq (42 dan 64 sekundgacha) sodir bo'lishi (3-jadval), yoyilish diametrlari xam me'yoriy hujjatlar talablariga javob berishi aniqlandi.

Akril polimeri bilan ishlov berilgan keramzitdan tayyorlangan keramzitbeton mustahkamlik ko'rsatkichlarining pastligini (5,v-rasm) keramzitning suv shimishining pastligi tufayli o'z-o'zidan vakuumlanishi va o'z-o'zidan zichlashishi sodir bo'lmaydi. Keramzit bu xolda mustahkamligi past zich to'ldiruvchi sifatida ishlaydi va shuning uchun qotgan betonning mustahkamligi past bo'lishi kuzatiladi.



5-rasm. Betonning siqilishdagi mustahkamligi: a) birinchi usulda tayyorlangan betonning mustahkamligi; b) xuddi shunday, ikkinchi usul ga ko‘ra; v) xuddi shunday, uchinchi usulga ko‘ra.

Tadqiqotlarda ma’lum optimal parametrlar ostida kerakli harakatchanlikni ta’minlagan holda betonning maksimal mustahkamligiga ikki (R_2), yetti (R_7) va 28 (R_{28}) sutkalarda erishish imkonini beradigan ikkinchi darajali rotatabel’ rejasidan foydalanildi.

Optimallashtirish jarayonida o‘zgaruvchan faktorlar sifatida beton mustahkamligiga ta’sir etuvchi, bir m^3 tayyorlash uchun sarf bo‘ladigan komponentlar portlandsement (X_1); superplastifikator (X_2); suv (X_3) va kul changi (X_4) miqdorlari (kg/m^3) qabul qilindi.

Bir qator tajribalar, hisoblar va muvofiqlik tekshiruvlari amalga oshirilganidan so‘ng o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasining bir kubometridagi portlandsement, superplastifikator (kg/m^3), suv (kg/m^3) va kul changining (kg/m^3) miqdorini qorishmaning yoyiluvchanligiga ta’sirini ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamasi va izoparametrik diagrammalari (6-rasm) ishlab chiqildi.

$$Y_{\text{распи}} = 63,567 - 6,992X_1 - 4,550X_2 + 12,333X_3 - 3,458X_4 - 6,663X_1X_2 + 5,063X_1X_3 - 3,825X_1X_4 - 0,863X_2X_3 - 2,500X_2X_4 - 1,025X_3X_4 - 3,225X_1^2 + 4,013X_2^2 - 3,588X_3^2 - 3,588X_4^2$$

Eksperimentlar o‘tkazish va muhim koeffitsientlarni soddalashtirishdan so‘ng ikki, yetti va 28 sutkalik o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonning mustahkamligini tavsiflovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi.

2 sutkalik namunalarda uchun :


$$Y_{R_{28}}^{2c} = 8,485 + 7,36X_1 - 2,29X_2 - 1,94X_3 + 2,37X_4 - 2,8X_1X_2 + 1,26X_1X_4 + 0,84X_2X_3 - 0,886X_2X_4 - 1,275X_3X_4 + 3,61X_1^2;$$

7 sutkalik namunalarda uchun:


$$Y_{R_{28}}^{7c} = 35,929 + 6,192X_1 - 3,467X_3 + 4,492X_4 + 1,575X_2X_3 - 1,625X_2X_4 - 1,211X_4^2$$

28 sutkalik namunalar uchun:


$$Y_{R_{CЖ}}^{28c} = 46,6 + 4,93X_1 - 1,148X_2 - 2,897X_3 + 2,211X_4 + 1,238X_3X_4 + 1,378X_2^2$$




$$X_1 = -1 - X_2 = -1$$




$$X_1 = -1 - X_2 = 0$$




$$X_1 = -1 - X_2 = 1$$




$$X_1 = 0 - X_2 = -1$$




$$X_1 = 0 - X_2 = 0$$




$$X_1 = 0 - X_2 = 1$$



$$X_1 = 1 - X_2 = -1$$



$$X_1 = 1 - X_2 = 0$$



$$X_1 = 1 - X_2 = 1$$

6-rasm. O‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasi konusning yoyiluvchanlik diametriga komponentlarning ta’siri


Yuqorida keltirilgan regressiya tenglamalaridan kelib chiqib eng yuqori yoyiluvchanlik va mustahkamlik ko‘rsatkichlarini ta’minlovchi optimal tarkiblar hisoblab topildi.

Optimal tarkiblar asosida tayyorlangan o‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmalarining xossalari aniqlandi. Unga ko‘ra konus yoyilish diametri 73 dan 80,5 sm gacha, 50 sm diametrga yoyilish vaqti 6 dan 12 s gacha, konus cho‘kishi 28,5 dan 29 sm gacha, beton qorishmasining o‘rtacha zichligi 1671 dan 1721 kg/m³ gacha, V-funnelda oqish vaqti 12 dan 57 s gacha, L-boxda oqish vaqti 13 dan 51 s gacha, qorishma tarkibidagi xavo xajmi 4,5 dan 6,3% gacha qiymatlarni qabul qildi.


O‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasining vaqt davomida xossalarini saqlab qolish xususiyatlari tadqiq qilindi. Qorishmaning 50 smga yoyilish vaqti (7-rasm) va yoyilish diametriga vaqt o‘tishining ta’siri (8-rasm) aniqlandi.

O‘z-o‘zidan zichlashuvchi beton qorishmalaridan tayyorlangan kub namunalar mustahkamliklarining vaqt davomida o‘shish intensivligi (9-rasm),

prizma namunalarning siqilishga va egilishga bo'lgan mustahkamliklari va vaqt davomida kirishish ko'rsatkichlari aniqlandi. Prizma namunalarning 7 sutkalik siqilishga bo'lgan mustahkamlik ko'rsatkichlari 16,7 dan 41,35 MPa gacha 28 sutkalik siqilishga bo'lgan mustahkamlik ko'rsatkichlari 18,3 dan 43,75 MPa gacha, egilishga bo'lgan mustahkamliklari esa mos ravishda 4,79 dan 6,06 MPa gacha bo'lgan qiymatlarni ko'rsatdi. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton namunalarning vaqt davomida kirishish ko'rsatkichlari 40 sutka davomida kuzatib borildi va 94 dan 123 mkm gacha kirishishini ko'rsatdi.




7-rasm. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qarishmalarining T₅₀₀ ko'rsatkichining vaqt davomida o'zgarishi



8-rasm. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qarishmalarining RK ko'rsatkichining vaqt davomida o'zgarishi

Bundan tashqari o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton namunalarning konstruktiv sifat koeffitsienti 21,84 dan 35,47 gacha, sovuqbardoshligi F100 dan F400 gacha, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti 0,516 dan 0,583 W/(m·K) gacha xamda o'rtacha zichligi esa 1510 dan 1624 kg/m³ gacha oraliqda qiymatlarni qabul qilishi aniqlandi.



9-rasm. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton kub namunalarning siqilishga bo'lgan mustahkamligi

mustahkamligi 55 MPa bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton olishga erishildi. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonni ishlab chiqarishda optimal tarkib va texnologiyani joriy etishdan kutilgan iqtisodiy samaradorlik 1 m³ beton uchun 69471 so'mni tashkil etdi (2024 yil narxlarida).

O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton ishlab chiqarishning texnologik sxemasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan texnologik sxema beton ishlab chiqarish uzulida sinovdan o'tqizildi va qabul qilindi.

O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonlarning ishlab chiqilgan tarkiblari "Aysel Inshaat" MChJ QKda va "UNIO GROUP" MChJ XKda joriy qilindi. Natijada siqilishdagi

XULOSA

1. Portlandsement, mikrokremnezem, kul changi va polikarboksilatli superplastifikator, fraksiyalari o'lchami 10 mm gacha bo'lgan keramzit granulari va keramzit qumidan samarali foydalangan xolda, o'rtacha zichligi 1574 kg/m^3 , siqilishdagi mustahkamligi 54,85 MPa (B40) bo'lgan yuqori mustahkamlikka ega o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton olish imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

2. Foydalanilgan keramzit granularining yuzasi 30 sutkalik davrda $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ni yutilishi 53 mg/g tashkil etishi va NaOH bilan har 1 g massaga nisbatan reaksiyaga kirishishi miqdori foydalanilgan keramzit turiga qarab 24,5dan 34%gacha tashkil etishi natijasida bog'lovchi bilan to'ldiruvchi o'rtasidagi adgeziyasini yaxshilanishi aniqlandi.

3. Tadqiqotlarda foydalanilgan PR-196 polikarboksilatli superplastifikatordan foydalanib tayyorlangan «portlandsement – faol mineral qo'shimcha - superplastifikator - suv» tizimida bog'lovchining 28 sutkalik davrdagi gidratatsiyalanish darajasi 0,653ni tashkil etishi aniqlandi.

4. O'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton qorishmasini tayyorlashdan avval keramzit granulariga suv bilan ishlov berish orqali olingan o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonning mustahkamligi an'anaviy usulda tayyorlanadiganikiga qaraganda 1,33 marta, polimer parda xosil qilib tayyorlanganikiga qaraganda 3,04 marta yuqori bo'lishi aniqlandi.

5. IJEMI42,5N turdagi portlandsement, mikrokalsit va sanoat chiqindilaridan foydalanib o'rtacha zichligi 1510 dan 1624 kg/m^3 gacha, siqilishdagi mustahkamligi mos ravishda 34,14 dan 54,85 MPa gacha bo'lgan o'z-o'zidan zichlashuvchi konstruksion yengil keramzitbetonning tarkiblari optimallashtirilib, ishlab chiqarishga tavsiya qilindi.

6. Tadqiqot natijalari o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbeton tarkibini optimallashtirish xamda komponentlarini zich joylashuvini ta'minlash orqali kub va prizma mustahkamliklarini hamda sovuqqa chidamlilik xossalarini yaxshilashga erishish mumkinligi ilmiy asoslandi.

7. "Aysel Inshaat" MChJ QK korxonasi B40 beton klassi uchun o'z-o'zidan zichlashuvchi keramzitbetonni ishlab chiqarishda optimal tarkib va texnologiyani joriy etishdan kutilgan iqtisodiy samaradorlik 1 m^3 beton uchun 69471 so'mni tashkil etdi (2024 yil narxlarida).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.26/30.12.2019.Т.11.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ АРХИТЕКТУРНО-
СТРОИТЕЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ АРХИТЕКТУРНО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТЎРАХАНОВ САФАРАЛИ ИБРОҲИМОВИЧ

**СОСТАВ И СВОЙСТВА САМОУПЛОТНЯЮЩЕГОСЯ
КЕРАМЗИТОБЕТОНА**

05.09.05 – Строительные материалы и изделия

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени
доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент– 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.2.PhD/Т4775.

Диссертация была выполнена в Ташкентском архитектурно-строительном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.taqu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ZiyoNet.uz)

Научный руководитель: **Камилов Хабибилла Хамидович**
Доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Ходжаев Саидаглам Аглоевич**
Доктор технических наук, профессор

Ахмедов Султон Илёсович
Кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский научно-исследовательский институт химической технологии**

Защита диссертации состоится 3-июня 2025 года в 13⁰⁰ часа на заседании Научного совета DSc.26/30.12.2019.Т.11.01 при Ташкентском архитектурно-строительном университете по адресу: 100194, г. Ташкент, Юнусабадский район, Янги шахар, дом 9, корпус 4, 5 этаж, Коворкинг-центр, тел: (99855) 508 02 95; факс (99855) 508 50 06, e-mail: devon@taqu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского архитектурно-строительного университета (зарегистрирован за №149). (Адрес: г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Янгишахар, 9. Тел./факс.: (99855) 508-02-95, e-mail: devon@taqu.uz)

Автореферат диссертации разослан 19-мая 2025 года
(протокол рассылка №55 от 17-марта 2025 г.).

Х.А. Акрамов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

И.И. Сиддиков
Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор технических наук, доцент

Б.А. Аскаров
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном мире бетонные и железобетонные конструкции играют важную роль не только в обеспечении жильем постоянно растущего населения, но и в строительстве гражданских, транспортных, гидротехнических и промышленных объектов. В таких странах, как США, Индия, Китай, Бразилия, Малайзия, Россия и других, прогнозируется среднегодовой темп роста рынка бетона и цемента в размере 6,36% с 2023 по 2028 год, что приведёт к увеличению объёма рынка на 438,3 миллиарда долларов.¹ В связи с этим имеют большое значение оптимизация свойств и структуры легких бетонов с использованием местных материалов и сырья, что дает возможность экономить природное сырье, использовать вторичные ресурсы, достигать энергоэффективности в производственном процессе, повышать их долговечность, совершенствовать технологии производства.

В мире уделяется большое внимание научным исследованиям, направленным на разработку составов энерго- и ресурсоэффективных минеральных вяжущих композиций с гидравлической активностью не ниже чистого клинкерного портландцемента, изучению их свойств и в конечном итоге достижению снижения выбросов углекислого газа в атмосферу, а также созданию на их основе составов бетонов с улучшенными конструкционно-техническими свойствами и совершенствованию технологий их производства. В этом направлении особое внимание уделяется снижению расхода цемента без снижения прочности бетона, улучшению его свойств с использованием местного и вторичного сырья и пористых заполнителей, а также модификации составов легких конструкционных бетонов различными химическими и минеральными добавками, их оптимизации с целью улучшения структуры и свойств, повышению энерго- и ресурсоэффективности.

В нашей республике особое внимание уделяется вопросам ускоренного развития промышленности строительных материалов, производства новых современных строительных материалов и конструкций с использованием местного и вторичного сырья, и в этом направлении достигнуты определённые успехи. В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» определены такие важные задачи, как «... снижение потерь в промышленных отраслях и повышение эффективности использования ресурсов ...».² В реализации этих задач важное значение имеют, в частности, научно-исследовательские работы, направленные на разработку составов самоуплотняющегося конструкционного керамзитобетона с использованием местного сырья и промышленных отходов.

¹ <https://www.technavio.com/report/concrete-and-cement-market-industry-analysis>

² Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

